

## O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimi (2019-2020-o‘quv yili boshida)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, bu sohada innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali o‘rta maxsus ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2829-sonli qarori qabul qilindi.

### 2019-2020-o‘quv yilida o‘rta-maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalari, **birlikda**

Viloyat bo‘yicha 2019-2020-o‘quv yilida o‘rta-maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalari soni 61 tani tashkil etadi.




## O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimi (2019-2020-o‘quv yili boshida)

Jizzax viloyatida 2019-2020-o‘quv yilida jami 61 ta o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyat yuritgan. Ulardan, akademik litseylar soni 3 ta (4,9 %) ni va kasb-hunari kollejlari soni 58 ta (95,1 %) ni tashkil etgan.





## Kasb-hunar kollejlaring 2019-2020-o‘quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



Jizzax viloyati bo'yicha 2019-2020-o'quv yili boshida 58 ta kasb-hunar kollejlari mavjud bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich G'allaorol tumanida (10 ta), Sh.Rashidov tumanida (9 ta) va eng kam ko'rsatkich esa Arnasoy, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlariga (2 ta) to'g'ri keladi.


## Kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2019-2020-o'quv yili boshiga)



2019-2020-o'quv yili boshida kasb-hunar kollejlari 11490 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Jizzax shahrida - 4388 kishi, Sh. Rashidov tumanida - 1718 kishi, G'allaorol tumanida - 1561 kishi va Zomin tumanida 1418 kishiga to'g'ri kelgan.

## Kasb-hunar kollej bitiruvchilarining hududlar kesimidagi taqsimlanishi (2019-2020-o'quv yili boshiga)

2019- yilda Jizzax viloyati bo'yicha jami 21425 nafar o'quvchi kasb-hunar kollejlarni tamomlagan. Shundan, eng ko'p tamomlagan o'quvchi soni Jizzax shahar (5045 nafarni) va Sh. Rashidov (2727 nafarni) tumani ko'rsatkichiga tegishli, eng kam bitiruvchi esa Zafarobod (479 nafarni) va Yangiobod viloyatiga (298 nafarni) to'g'ri kelgan.



## Kasb-hunar kollejlari o'qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi (2019-2020-o'quv yili boshiga)

2019-2020-o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari jami o'qituvchilar soni 1061 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan. Jizzax viloyatida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 11 nafar o'quvchi to'g'ri kelib, shulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Arnasoy tumanida ya'ni, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 58 nafardan o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Yangiobod tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 6 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.



**Jami  
o'qituvchilar  
soni**





**Bitta  
o'qituvchiga  
to'g'ri  
keladigan  
o'quvchilar soni**

## Jizzax viloyatida akademik litseylar faoliyati (2019-2020-o‘quv yili boshiga)

Jizzax viloyatida 2019-2020-o‘quv yili boshida akademik litseylarda jami 2094 nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lib, jinsi bo‘yicha taqsimlanganida umumiy songa nisbatan 34,7 % ni o‘quvchi qizlar tashkil etgan.

Akademik litseylarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning jinsi bo‘yicha taqsimlanishi, kishi



Akademik litseylarni bitirgan o‘quvchilarning taqsimlanishi jinsi bo‘yicha, kishi



## Akademik litseylarda o'qituvchi xodimlar (2019-2020-o'quv yili boshiga)

Jizzax viloyatida 2019-2020-o'quv yili boshida akademik litseylarda jami 2094 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, jinsi bo'yicha taqsimlanganida umumiy songa nisbatan 34,7 % ni o'quvchi qizlar tashkil etgan.



Jizzax viloyati bo'yicha akademik litseylarida 165 (o'rindoshlarsiz) nafar o'qituvchi faoliyat olib borayotgan bo'lib, bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

72-221-51-36

72-222-81-36